

UZBEKISTAN LAW REVIEW



ISSUE 2
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2025
№2**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

БОШ МУҲАРРИР:

Гулямов Саид Саидахарович – юридик
фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович – ю.ф.д.,
профессор.

Ҳўжаев Шохжахон Акмалжон ўғли – юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқюлов Омонбой – ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёқубович – ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович – ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаевна – ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич – ю.ф.д., доц.

Беков Ихтиёр – ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Сохибжонович – ю.ф.д., проф.
в.б.

Хазратқулов Одилбек Турсунович – юридик
фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович – ю.ф.д.,
профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович – ю.ф.д.,
профессор.

Нарзиёв Отабек Саъдиевич – ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна – юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун қуйидагиларга мурожаат этиш
сўралади:

**Гулямов Саид Саидахарович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович**
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон
нусхаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки
www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журналлари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар,
талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб,
Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик
университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.

2025 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик
университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар ҳимояланган.
Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва
қўлайтириш Тошкент давлат юридик университети рухсати
билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент
давлат юридик университетига мурожаат этилади.
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ
кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**

Наشريёт муҳаррири: **Н. Ниязова**

Техник муҳаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишга рухсат этилди – 28.06.2025

Наشريёт ҳисоб табоғи – 5

«IMPRESS MEDIA» босмаҳонасида босилди

Адади – 100 нусха.

**ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ
ЖУРНАЛ**

2/2025

Abdusatarov Jaloliddin Sharafutdin o'g'li

Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi
Qibray tumani adliya bo'limi Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

RAQAMLI AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING HUQUQIY JIHATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli aktivlar tushunchasi, ularning iqtisodiy va texnologik ahamiyati hamda zamonaviy raqamli muhitda tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Muallif tomonidan raqamli aktivlarning turlari keltirilib, ularning huquqiy jihatlari yoritiladi va misollar bilan asoslantiriladi. Shuningdek, raqamli aktivlarning iqtisodiy muomaladagi roli, ularni yaratish, saqlash va almashish mexanizmlari hamda texnologik asoslari (blokcheyn, smart-kontraktlar) haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli aktivlar, kriptoaktivlar, blokcheyn texnologiyasi, smart-kontraktlar, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. В статье анализируется понятие цифровых активов, их экономическое и технологическое значение, а также место в современной цифровой среде. Автор рассматривает виды цифровых активов, освещает их правовые аспекты и обосновывает их на примерах. Также рассматриваются роль цифровых активов в экономическом обороте, механизмы их создания, хранения и обмена, а также их технологические основы (блокчейн, смарт-контракты).

Ключевые слова: цифровые активы, криптоактивы, технология блокчейн, смарт-контракты, цифровая экономика.

Abstract. This article analyzes the concept of digital assets, their economic and technological significance, and their place in the modern digital environment. The author presents the types of digital assets, highlights their legal aspects, and justifies them with examples. The role of digital assets in economic circulation, the mechanisms for their creation, storage, and exchange, as well as their technological foundations (blockchain, smart contracts), are also discussed.

Keywords: digital assets, cryptoassets, blockchain technology, smart contracts, digital economy.

Kirish

So'nggi yillarda raqamli texnologiya rivojlanib borar ekan, yangi munosabatlarning paydo bo'lishi odatiy holga aylandi. XXI asr bu texnologiyalar davri hisoblanib, keyingi yillarda insoniyatni katta katta texnologiya bilan bog'liq o'zgarishlar kutib turibdi desak also mubolag'a bo'lmaydi. Huquqning ushbu yangi o'zgarishlarni "quvib yetishi", yuzaga kelayotgan yangi-yangi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni belgilash hozirgi kunda huquqshunoslarning bosh qotirayotgan asosiy muammoga aylandi. Mana shunday yangi munosabatlardan biri bu raqamli aktivlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisobla-

nadi. Mazkur dissertatsiyaning ushbu rejasi raqamli aktivlar tushunchasi va ularning huquqiy jihatlari qaratilgan bo'lib, quyida raqamli aktivning tushunchasi, uning huquqiy jihatlari, qaysi jihatlar huquqiy muhofazaga muhtojligi, raqamli aktivlarning tartibga solinishining o'ziga jihatlari keltirib o'tiladi.

Xo'sh, raqamli aktiv o'zi nima? Raqamli aktiv - bu raqamli shaklda bo'lgan, kompyuterda yoki internetda joylashgan har qanday turdagi ma'lumot hisoblanadi. Van Niekerk raqamli aktivlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Raqamli aktiv - bu matn yoki vositalarining har qanday elementi bo'lib, ular foydalanish huquqini o'z ichiga olgan ikkilik (binary) shaklda formatlangan narsa". Kompyuterdagi oddiy bir fayl raqamli aktiv deb nomlanishi uchun asosiy bir sabab - bu uning qayta va qayta foydalansa bo'ladigan narsa bo'la olishidir. Raqamli materiallar uzoq vaqtga yetadigan qiymatga ega bo'ladi va boshqa aktiv turlariga o'xshash tarzda qayta foydalanilishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, raqamli materiallar faqat raqamli aktivlarning egasi yoki yaratuvchisi tomonidan emas, balki boshqalar tomonidan egalik qilinishi va foydalanilishi mumkin.

Oxford lug'atida raqamli aktivlarga "raqamli formatdagi matn yoki vositadan foydalanish huquqini o'z ichiga olgan element" sifatida ta'riflab o'tiladi. Bunda matn deyilganda onlayn maqolalar, blog postlar, elektron pochta xabarlar, akkauntlar, hujjatlar va boshqa matnli ma'lumotlar kabi har qanday yozma ishlarga ishora qilinadi. Matn oddiy matn, ma'lum bor formatga ega bo'lgan matn (masalan, HTML, PDF) yoki tuzilgan matn (masalan, ma'lumotlar bazasi yozuvlari) shaklida bo'lishi mumkin. Boshqa vositalar esa tasvirlar, videolar, audio fayllar, animatsiyalar, grafikalar, taqdimotlar va boshqa multimedia elementlarini anglatadi.

ChatGPT esa raqamli aktivga quyidagi ta'rif berib o'tadi: "Raqamli aktiv raqamli shaklda mavjud bo'lgan va muayyan qiymatga ega bo'lgan har qanday kontent yoki ma'lumot shaklidir. Raqamli aktiv kriptovalyutalar, raqamli hujjatlar, tasvirlar, videolar, audio fayllar, dasturlar va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin. Raqamli aktivlar odatda elektron shaklda saqlanadi va boshqariladi, shuningdek, ularga raqamli tarmoqlar orqali kirish va uzatish mumkin. Ushbu aktivlarni xuddi jismoniy aktivlar kabi sotib olish, sotish va garov sifatida ishlatish mumkin va ular bugungi raqamli iqtisodiyotda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda." Ushbu ta'rifni tahlil qiladigan bo'lsak, sun'iy intellekt raqamli aktivning ikki jihati-ga muhim e'tibor qaratadi. Birinchisi, bu raqamli aktivning raqamli shaklda bo'lishidir, ya'ni u jismoniy obyekt, jismlilik xususiyatiga ega bo'lmasligi kerak. Uni qo'limiz bilan ushlay olmasligimiz, his qila olmasligimiz lozim. Ikkinchi xususiyat esa bu raqamli aktivlarning muayyan qiymatga egaligi hisoblanadi. Ya'ni raqamli aktiv muayyan bahoga ega bo'lishi shart. Oldi-sotdi predmeti bo'la oladigan darajada muayyan qiymatga ega bo'lishi shart hisoblanadi.

Investopedia ma'lumotlariga ko'ra, raqamli aktiv odatda raqamli shaklda yaratilgan va saqlanadigan, aniqlanishi mumkin bo'lgan va tegishli darajada qiymatga ega bo'lgan har qanday narsadir. Raqamli aktivlar fotosuratlar,

qo'lyozmalar, hujjatlar, ma'lumotlar, kriptovalyutalar va boshqalarni o'z ichiga olgan keng doiradagi narsalarni o'z ichiga oladi.

Raqamli aktiv nima? Umuman olganda, raqamli aktiv bu raqamli shaklda yaratilgan va saqlanadigan, o'ziga yarasha identifikatsiyasiga ega bo'lgan, qiymatga ega bo'lgan yoki taklif qilinsa bo'ladigan har qanday narsadir. Bunda qiymatga egaligi bu raqamli aktivning muayyan darajada bahoga ega bo'lishi layoqatini anglatadi. Masalan, kompyuterdagi yaratilgan rasm, yoki chizilgan arxitektura obyekti muayyan darajada bahoga ega bo'lishi mumkin. Raqamli aktivlarning taklif qilinish qobiliyatiga ega bo'lishi bu ularning muayyan qiymat evaziga berilishi mumkinligi bilan izohlanadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasida shartnoma oldi-sotdi predmeti bo'lishi mumkinligi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida ham raqamli dunyo rivojlanib borayotganligi sababli qator o'zgartirishlar amalga oshirishga harakat qilinib kelinmoqda. Shu jumladan, bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, yangi Fuqarolik kodeksi loyihasi da "raqamli" so'zi jami 15 marotaba ishlatilib, unda kriptovalyuta va raqamli huquqlarga tushuncha berilib, ularning dastlabki huquqiy asoslari yaratilgan. Loyihaning 167-moddasiga ko'ra, "Qonunda raqamli huquqlar sifatida belgilangan hamda mazmuni va amalga oshirish shartlari qonunda nazarda tutilgan belgilarga muvofiq keluvchi axborot tizimi qoidalariga muvofiq aniqlanadigan majburiyat huquqi va boshqa huquqlar raqamli huquqlar hisoblanadi. Raqamli huquqni amalga oshirish, tasarruf etish, shu jumladan boshqa shaxsga berish, garovga qo'yish, boshqa usulda ta'qiq belgilash yoki raqamli huquqni tasarruf etishni cheklash uchinchi shaxslarga murojaat qilinmasdan faqat axborot tizimida amalga oshirilishi mumkin. Agar qonunda boshqacha hol belgilangan bo'lmasa, axborot tizimi qoidalariga muvofiq ushbu huquqni tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs raqamli huquq egasi sifatida tan olinadi. Qonunda nazarda tutilgan asoslar va hollarda raqamli huquq egasi sifatida boshqa shaxs tan olinishi mumkin. Bitim asosida raqamli huquqning boshqa shaxsga o'tishida ushbu raqamli huquq bo'yicha majburiyatni zimmasiga olgan shaxsning roziligi talab qilinmaydi".

Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, raqamli huquqlar raqamli aktivlarga qaraganda keng tushuncha. A.A. Kartskhianing so'zlariga ko'ra, raqamli huquqlar mulk huquqining bir turi sifatida tan olinishi lozim. Ushbu huquqlar fuqarolik muomalasida harakatda bo'la oladi. R.I.Sitdikova va R.B.Sitdiqovlarning fikricha, "Raqamli huquq" tushunchasini huquqiy tartibga solish turli sohalarda o'zgartirishlar va aniqlik kiritish talab etiladi. Bu "raqamli huquqlar", xususan, fuqarolik huquqining huquqiy rejimini o'rnatish va u bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish demakdir. E.N.Agibalova ta'kidlaganidek, "raqamli huquqlar" tushunchasining ta'rifi juda keng, u raqamli shaklda qayd etilgan har qanday huquqlarni o'z ichiga olishi mumkin. Darhaqiqat, internet, virtual olam, texnologiya bilan bog'liq har qanday faoliyatni ham insonlarning raqamli huquqlar sifatida aytib o'tsa bo'ladi. Masa-

lan, oddiygina kompyuter, telefon o'yinlarini o'ynashdan tortib plastik kartochkalardan foydalanish, ularda pul saqlash, ma'lumot olish, ular orqali pul yechib olish yoki ularga pul qo'yishlarni ham raqamli huquqlar qatoriga kirmoqchi.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining raqamli huquqlarga doir normalari deklarativ xarakterga ega hisoblanadi va ular raqamli huquqlarni insonlarning axborot tizimidagi mulk huquqlari deya e'tirof etadi. V. Zorkin ham raqamli huquqlarni bu insonlarning elektron vositalar orqali internet tarmog'idagi ma'lumotlarni olishi, yuklashi, ularni tasarruf etishi kabi huquqlar sifatida tushunadi. A. Sidiqovning yana bir qiziqarli fikrini e'tiborga olish lozimki, unga ko'ra, raqamli huquqning obyektlari, mulk huquqining obektlaridan farqli ravishda, asosiysi bilan teng kuchga ega bo'lgan holda ko'chirilishi, ko'paytirilishi mumkin. R.S. Bevenkonning fikricha, raqamli huquqlar fuqarolik huquqning alohida tarkibi emas, balki fuqarolik huquqning mulk huquqlari ichiga kirib ketadi. Umuman olganda, qaysidir ma'noda Bevenkonning fikri mutlaqo to'g'ri, ammo raqamli huquqlarning doirasi shu qadar kengki, ularni alohida huquq turi sifatida e'tirof etish o'rinni o'rinliroq bo'lishi mumkin. Xorijiy iqtisodchi olimlar A.Kud, N.Kucheryavenko, Ye.Smichoklarning fikriga ko'ra, raqamli aktiv va kriptofuqarolik tushunchalari bir-biridan farq qiladi: raqamli aktiv (digital asset) – bu faqat raqamli shaklda muomalada bo'ladigan aktiv yoki boshqa aktivning elektron ko'rinishidagi shaklidir, kriptofuqarolik (crypto asset) esa, bu kriptografiyadan foydalangan holda chiqarilgan raqamli aktivdir.

Yuqoridagi tushuncha umumiy tushuncha bo'lib, raqamli obyektlarning tushunchasi va tasarruf etilishi haqida umumiy qoidani belgilaydi. Normada raqamli huquqlarning konkret tarifi berilmasdan, qonunga havola qilingan, shuningdek, axborot tizimi qoidalariga muvofiq aniqlanishi belgilangan. Fikrimizcha, bunda axborot tizimi qoidalari deyilganda har bir platformada belgilangan TOS (Terms of Use) qoidalarida ishora qilinadi. Bunda umumiy qoidalar qonunda belgilanib, maxsus shartlar xizmatlar provayderi tomonidan belgilanishini qonun chiqaruvchi nazarda tutgan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, loyiha 166-moddasida raqamli aktivlarning asosiy turlaridan biri bo'lgan kriptovalyutani tartibga soluvchi muhim qoidalar belgilangan. Unga ko'ra, "Raqamli pul (kriptovalyuta) bu qiymati va egasi bo'lgan, mazmuni va shartlari qonunda belgilangan tartibda aniqlanadigan majburiyat va boshqa huquqlar yig'indisi hisoblanadi. Raqamli pul (kriptovalyuta) fuqarolik huquqlari obyekti hisoblanadi va qonunda boshqa tartib o'rnatilmasa, erkin muomalada bo'ladi. Qonunda boshqacha hol o'rnatilmasa, raqamli pul (kriptovalyuta)ning erkin muomalasi, begonalashtirilishi yoki boshqa tasarruf etilishi faqat axborot tizimida amalga oshiriladi".

AQShning Vayoming shtatining 2019-yil 1-iyuldagi SF0125 qonunida raqamli aktivga quyidagicha ta'rif berilgan: "Raqamli aktiv – bu mashinada o'qiladigan formatda saqlanadigan iqtisodiy va mulkiy huquqlarning aks etishi bo'lib, o'z ichiga iste'mol aktivlarini, raqamli qimmatli

qog'ozlarni va virtual valyutalarni oladi”.

Yuqoridagi normada kriptovalyutaning ikki jihati mavjud bo'lishiga ahamiyat beriladi. Birinchisi – qiymatligi, ikkinchisi esa bu uning “kimdirniki bo'la olishi” qobiliyatidir. Mana ikki xususiyatga ega bo'lib, erkin muomalasi, begonalashtirilishi yoki boshqacha yo'l bilan tasarruf etilishi faqat axborot tizimida amalga oshirilgandagina u obyekt raqamli pul hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida “kripto-aktiv” so'ziga ham tushuncha berilib, unda kripto-aktiv bu “ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtdagi raqamli yozuvlar yig'indisini ifodalaydigan, qiymati va egasiga ega bo'lgan mulkiy huquq” hisoblanishi aytib o'tilgan. Yuqorida ChatGPT sun'iy intellekti tommonidan berilgan tarif tahlilida ham qiymatlilik hamda “egasi bo'lishi” haqidagi qoidalar aytib o'tilgan. Raqamli aktiv jismoniy obyekt bo'lmasligi, jismlilik xususiyatiga ega bo'lmasligi kerak, bundan tashqari, raqamli aktiv muayyan bahoga ega bo'lishi shart. Oldi-sotdi predmeti bo'la oladigan darajada muayyan qiymatga ega bo'lishi shart hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2022-yil 14-iyuldagi 32-son buyrug'iga 1-ilovasida ham kripto-aktivlarning ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtdagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lganligi, qiymati bo'lishi va egasiga ega mulkiy huquqlar bo'la olishi xususiyatlari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori (03.07.2018 yildagi PQ–3832-son)da ham kripto-aktiv mulkiy huquq hisoblanishi, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtdagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan qiymati va egasiga egaligi qayd etilgan. Shuningdek, qarorda kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyat turlari – mayning va kripto-aktivlar – aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlar faoliyati ekanligi qayd etilgan.

Bugungi kunda raqamli aktivlar hayotning bir qismiga aylandi, bular raqamli muhitga doimiy ravishda kiritilgan kompyuterlar, smartfonlar, raqamli media yoki bulutli texnologiyalarda saqlanadigan ma'lumotlar hisoblanadi. Umuman olganda, shu narsani ta'kidlab o'tish joizki, o'tgan asrlarda aktivlar deganda faqat jismoniy shakldagi moddiy aktivlar, masalan, pul mablag'lari, mashinalar, binolar, yerlar, va boshqa shularga o'xshash narsalar tushunilgan, bundan tashqari nomoddiy aktivlar ham mavjud bo'lib, ularga jismoniy bo'lmagan aktivlar kirgan, masalan har qanday turdagi intellektual mulk obyekti, tijorat sirlari va hokazo. XX asr oxiridan boshlab esa raqamli inqilob odamlarning hayotini tubdan o'zgartirishi natijasida fuqarolik huquqiy munosabatlarda obyektlarning yangi turi paydo bo'ldi. Ayrim olimlar raqamli aktivlarni nomoddiy aktivlarning bir qismi deb bilishsa ham, faktlar shuni ko'rsatadiki, tez rivojlanayotgan hozirgi kundagi axborot texnologiyalari “Raqamli aktivlar”ni mutlaqo noyob va nomoddiy aktivlardan alohida ekanligini namoyot etmoqda. Raqamli dunyo, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan foy-

dalanuvchilarning barchasi hozirda raqamli aktivning real hamda muayyan darajada o'z qiymatiga ega ekanligini tan olishmoqda desak xato bo'lmaydi. Internetdagi ba'zi akkauntlar, masalan, eBay va PayPal, akkaunt egasi vafot etganidan keyin meros bo'lib o'tadigan narsa bo'lishi va bu o'z-o'zidan uning qiymatga egaligidan dalolat beradi. Elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlar akkauntlar foydalanuvchilarning oilasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin, ushbu narsalar (masalan, rasm, shaxsiy ma'lumotlar va hokazo) ham muayyan darajada qiymatga ega, ayniqsa, akkaunt egasi uchun bu juda qimmatli ma'lumot hisoblanadi.

Raqamli muhitda vorislik masalalari ham ancha dolzarb masalalar bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda, shu narsani aytish joizki, Facebook, Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlar vorislik masalalarini yetarlicha tartibga solmaydi. Bu bir tomondan tushunarli bo'lishi mumkin, sababi, shaxsning akkaunti faqat o'zigagina tegishli bo'ladi, u vafot etgandan keyin ham akkaunt yopilishi va bundan hech kim foydalana olmasligi kerak. Ammo, boshqa tomondan, aytaylik, shaxs bankda hisob raqam ochib, uning merosxo'ri vafot etgan shaxsning pullarini uning vorisi tariqasida ololsayu, marhumning PayPal yoki Payoneerdagi pullariga merosxo'r bo'la olmaydimi? Ikkinchi jumla haqida o'ylanganida albatta raqami dunyoda barcha aktivlar meros tariqasida o'tishi shartligini belgilash kerakligi oydinlashib qoladi. Frilanserlik bilan shug'ullanish uchun mo'ljallangan Fiverr, Upwork kabi platformalardagi shaxslarning pullari ham vorislik obyekti bo'lishi mumkin.

Raqamli aktivlarning huquqiy jihatlar haqida gapirganda eng avvalo ularning tartibga solinishi kerakligi haqidagi bahs yotadi. Albatta, raqamli aktivlar huquqiy munosabat predmetining yangi turi ekan, o'ziga xos qonun normalarining belgilanishini talab qiladi. Ayrim olimlar raqamli aktivlar tartibga solinishiga biroz qarshi chiqishadi, buning sababi sifatida esa, raqamli aktivlarning paydo bo'lganining asosiy sabablaridan biri bu markazlashtirilgan tizimlarning yomon tomonlarini chetlab o'tishga qaratilgan harakat hisoblanishini aytishadi.

Fikrimizcha, raqamli aktivlar huquqiy jihatdan tartibga solinishi shart. Albatta, buning bir qancha sabablari mavjud. Birinchidan, hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotida raqamli aktivlarning ulushu kattlashib bormoqda. Raqamli aktivlarni boshqarish (DAM) global bozori 2023-yilda 3,96 milliard dollarga baholandi. Bozor 2024-yilda 4,59 milliard AQSh dollarini tashkil etishi va 2032-yilga kelib 16,18 milliard dollarni tashkil etishi prognoz qilinayapti. Raqamli aktivlar bozoridagi daromad 2024-yilda 80 080,0 million dollarga yetishi kutilmoqda. Daromadning yillik o'sish sur'ati (CAGR 2024-2028) 8,77% ni ko'rsatishi qayd etilmoqda, natijada 2028-yilga kelib 112,100,0 million dollar miqdorga chiqishi prognoz qilingan. Raqamli aktivlar bozorida har bir foydalanuvchining o'rtacha daromadi 2024-yilda 96,0 AQSh dollarini tashkil qiladi. Global taqqoslash nuqtai nazaridan, eng yuqori daromadga Qo'shma Shtatlarda erishilganligi ko'rsatilgan (2024-yilda 36 880,00 million AQSh dollari). Raqamli aktivlar bozorida

foydalanuvchilar soni 2028-yilga kelib 992,50 million foydalanuvchini tashkil etishi kutilmoqda. Foydalanuvchilar kirishi 2024-yilda 10,76% ni tashkil qiladi va 2028-yilga kelib bu foiz 12,39% ga yetishi tahmin qilinyapti.

Raqamli aktivlarning huquqiy jihatdan tartibga olishning yana bir muhimligi bu - soliq to'lashdan bo'yin tovlashning ehtimoli oshishi hisoblanadi. Raqamli aktivlarni konkret ravishda kuzatib borishning iloji yo'qligi sababli, tranzaksiya va saqlashni doimiy ravishda hisobga olish juda mushkul va bu narsa soliqdan qochish kabi huquqbuzarliklarni ko'paytiradi. Bu narsa raqamli aktivlar paydo bo'lishi bilan daromadining kamayishini guvohi bo'lgan va bo'layotgan davlatlar uchun juda yoqimsiz holat hisoblanadi.

Raqamli aktivlarning huquqiy jihatdan tartibga olishning eng uhim sababi bu shubhasiz, aktivlarning o'zi noqonuniy hakkerlik hujumlariga qarshi himoyasizligi hisoblanadi, chunki kundalik foydalanuvchi bir xil darajadagi xavfsizlikni doimiy tarzda ta'minlay olmaydi. Eng muhimi, raqamli aktivlarning tartibga solinishi eng avvalo oddiy odamlar uchun xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha muammolar raqamli aktivlarning egalariга tegishlidir. Ular Bitcoin orqali noqonuniy materiallar va xizmatlarni onlayn sotib olishligi mumkin. Biz ular uchun qonun chiqarayotgan o'sha odamlar soliqlardan qochadilar. Ko'rinib turibdiki, raqamli aktivlarning turli muammolarini hal qilish uchun tartibga solish mexanizmlari bo'lishi shart hisoblanadi.

Raqamli aktivlarning tartibga solinishi shart etuvchi yana bir omil bu uning qonunchilikda konkret qaysi normalar bilan tartibga solinishing tartibga solinmaganligi hisoblanadi. Masalan, O'zbekistonda hozirgi kunga kelib mavjud qonunchilikda raqamli aktivlar bilan bog'liq nizolarda qaysi qonunchilikni qo'llash masalasi hali hamon ochiq turibdi. Bu o'rinda yangi Fuqarolik Kodeksi loyihasini eslatib o'tish joiz. Yangi Kodeks loyihasining 446-moddasida Kodeksning Oldi sotdi qoidalari paragrafida nazarda tutilgan qoidalar mulkiy huquqlarni, shu jumladan raqamli huquqlarni sotishga nisbatan qo'llanilishi belgilangan. Bundan tashqari, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, agar ushbu huquqlar mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha hol kelib chiqmasagina oldi-sotdi qoidalalar raqamli huquqlarga nisbatan tadbiiq etiladi. Fikrimizcha, ushbu istisno raqamli huquqlar ularni o'tkazish yoki sotishni taqiqlovchi muayyan shartlar bilan bog'langan hollarda, masalan, o'tkazilmaydigan dasturiy ta'minot litsenziyalari yoki obunalar holatlarida qo'llanilishi mumkin. Agar raqamli huquqlarni sotish mualliflik huquqi yoki intellektual mulk qonunlarini buzsa, unda ham tabiiyki o'z-o'zidan qo'llanilmaydi. Ya'ni, bunday vaziyatda tranzaksiya haqiqiy emas deb topiladi. Shu sababli, raqamli huquqlarning xaridorlari va sotuvchilari oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan oldin shartnoma shartlarini diqqat bilan ko'rib chiqishlari muhimdir.

Raqamli aktivlarning huquqiy jihatlari haqida gap ketganda, eng avvalo intellektual mulk huquqlarini ham inobatga olish zarur. Intellektual mulk huquqlari ham raqamli aktivlarning muhim huquqiy jihati hisoblanadi.

Raqamli ommaviy axborot vositalari, dasturiy ta'minot va boshqa raqamli kontent mualliflik huquqi qonunlari bilan himoyalangan bo'lib, huquq egalari o'z ishlarini nazorat qilishlari va undan tijoriy foyda olishlarini ta'minlaydi.

Raqamli aktivlar zamonaviy iqtisodiyotimizning tobora muhim jihatiga aylandi, jismoniy shaxslar va korxonalar raqamli aktivlarning turli shakllarini yaratib, sotmoqda. Ushbu aktivlarning mashhurligi va qiymati o'sishda davom etar ekan, ularga egalik qilish, o'tkazish va himoya qilishni tartibga soluvchi qonunchilik asoslarini yaratish zarur.

Mazkur reja yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak, raqamli aktivlar o'zida shaxsning ham mulkiy huquqini, ham mulk huquqini vujudga keltiradi. Yuqoridagi keltirilgan shaxsiy fikrlar hamda olimlarning raqamli huquq va raqamli aktivlarga bergan fikrlaridan so'ng shuni xulosa qilish mumkinki, raqamli aktivlar shunday nom bilan atalishi uchun eng avvalo ma'lum darajada qiymatga ega bo'lishi zarur. Bundan tashqari, ushbu raqamli aktivga kimdir egalik qila olishi kerak, aks holda unga nisbatan mulkiy huquq ham, mulk huquqi ham berilmaydi. Raqamki aktivning eng muhim jihati esa bu uning raqamli shaklda bo'lishi hisoblanadi, ya'ni u ashyolarning shunday turiga kiradiki, uni ushlab bo'lmaydi, lekin mulkiy huquqni beruvchi patent yoki shunga o'xshash narsa ham emas. Uar obyektlarning alohida turi sifatida e'tirof etilishi maqsadga muvofiq.

Raqamli aktivlarning huquqiy jihatlari haqida gap ketganda bir qancha masalalarni tahlil qilib o'tish kerak. Birinchidan, qonun hujjatlarida raqamli aktivlarning statusi konkret belgilanishi kerak va keyingi qabul qilinajak qonunlarimizda raqamli aktivlarning xususiyatiga qarab (mulkiy huquq beruvchi, mulk huquqini beruvchiligiga qarab) ularning tartibga solinishi turlicha bo'lishi mumkin. Raqamli aktivlar bilan bog'liq nizolarda yurisdiksiyaviy masalalar va qo'llaniladigan huquq masalalari konkret belgilab olinishi zarur hisoblanadi.

Использованная литература

1. Van Niekerk, A. J. (2006). The Strategic Management of Media Assets; a Methodological Approach. Allied Academies, New Orleans Congress.
2. Oksford lug'ati, <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/digital-asset>.
3. Digital Asset: Meaning, Types, and Importance, <https://www.investopedia.com/terms/d/digital-asset-framework.asp>.
4. Raqamli aktiv nima? Blog post, <https://mpost.io/uz/glossary/digital-asset>.
5. Fuqarolik kodeksining yangi loyihasi, <https://regulation.gov.uz/uz/d/29059>.
6. Kartskhia A.A. Digital Rights and Law Enforcement // Monitoring of Law Enforcement No. 2 (31) - 2019, DOI: 10.21681 / 2226-0692-2019-2. P.44.
7. Sitdikova R.I., Sitdikov R.B. Digital rights as a new type of property rights // Property relations in the Russian Federation. 2018. No. 9 (204). P.79.
8. Agibalova E.N. Digital rights in the system of

objects of civil rights // Legal Bulletin of the Dagestan State University. 2020.Vol. 33. No. 1. 93-p.

9. Zorkin V.D. Law in the digital world. Reflection on the sidelines of the St. Petersburg International Legal Forum // Rossiyskaya Gazeta. 2018.29 May.

10. Sitdikov A. Digital law - the legal basis of the digital economy. // Odillik mezon. 2020. No. 11, P.50.

11. <https://www.ilkogretim-online.org/fulltext/218-1612858492.pdf>.

12. Куд А., Кучерявенко Н., Смычок Е. Цифровые активы и их экономико-правовое регулирование в свете развития технологии блокчейн. Монография. – Харьков: Право, 2019. – 384 с.

13. SF0125-Digital assets-existing law. URL: <https://www.wyoleg.gov/Legislation/2019/SF0125>.

14. Goldfinger, C. Intangible economy and its implications for statistics and statisticians. International Statistical Review. 65(2), 1997.

15. Lekkas, Nikolaos. "Legal Aspects of the Custody of Digital Assets." (2020).

16. Key market insights, available at <https://www.fortunebusinessinsights.com/digital-asset-management-dam-market-104914>.

17. Digital Assets – Worldwide, available at <https://www.statista.com/outlook/fmo/digital-assets/worldwide>.